FARG'ONA VILOYATI TOSHLOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - dekabr | 271-11-160-Q/22 | Toshloq tumani hokimligi

Toshloq tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish

bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash tog'risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Toshloq tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi:

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolik xizmati ko‘rsatish boshqarmalari) hamda qabristonlarning ma’muriyati:

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror Toshloq tongi gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Dexqonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Djurabayev**

Toshloq tuman hokimining
2022 yil 30 dekabrdagi
271-11-160-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshloq tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

сўм

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	BXMga nisbatan xisoblanadi
1.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta o‘lchamda)	1 o‘ringa	50%
2.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar kichik o‘lchamda)	1 o‘ringa	40%
3.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	Bepul
4.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar 3yoshgacha)	1 o‘ringa	Bepul
5.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	Bepul